

## XXI ASRDA MALAKALI O'QITUVCHI QANDAY BO'LISHI KERAK?

*Abdufattoyeva Mo'mina Ismoil qizi*

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

*E-mail: abdufattoyevamumina@gmail.com*

*Tel: +998911062823*

*Ilmiy rahbar: Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi*

*E-mail: yaqubjonovaruzixon@gmail.com*

*Tel: + 998914822291*

**Annotatsiya:** ushbu maqola hozirgi kundagi dolzarb kasblardan biriga aylangan o'qituvchilik faoliyati haqida so'z yuritadi. Bilamizki, 21- asrga kelib, fan va texnologiya yuqori darajada rivojlandi va sun'iy Intellektning ommalashuvi barcha soha jumladan ta'lif sohasi vakillaridan ham har tomonlama yetuk va raqobatdosh bo'lishni talab qilmoqda. Ushbu maqola pedagogik faoliyat rahbarlarining yangi texnologiyalar sharoitida qanday choralar ko'rishi zarurligi va zamonaviy ta'lif jarayonlarini samarali tashkil etish yo'llarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, pedagogika, zamonaviy ta'lif, innovatsion metodlar, malaka.

**Abstract:** This article discusses teaching as a profession, which has become one of the most relevant and in-demand careers today. As we know, by the 21st century, science and technology have advanced significantly, and the rise of artificial intelligence has impacted all fields, including education. As a result, educators must be well-rounded and highly competitive to meet modern demands. This article explores the measures that educational leaders should take in adapting to new technologies and examines effective strategies for organizing modern educational processes

**Keywords:** artificial intelligence, pedagogy, modern education, innovative methods, qualification.

**Аннотация:** Данная статья рассматривает преподавание как профессию, которая стала одной из самых востребованных и актуальных на сегодняшний день. Как известно, к XXI веку наука и технологии достигли высокого уровня развития, а распространение искусственного интеллекта оказало влияние на все сферы, включая образование. В результате педагоги должны быть разносторонне развитыми и конкурентоспособными, чтобы соответствовать современным требованиям. Эта статья исследует меры, которые должны принять руководители образовательной сферы для адаптации к новым технологиям и анализирует эффективные стратегии организации современного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, педагогика, современное, образование, инновационные методы, квалификация.

Qadimdan o'qituvchilik muhim ahamiyatga ega bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi. Davrlar davomida bu kasb mohiyati va uslublari jiharodan katta o'zgarishlarga duch keldi va avvallari pedagoglar bilim manbai sifatida ko'rilsa, hozirgi kunga kelib ular yo'l- yo'riq ko'rsatuvchi va mentorlar hisoblanadi. O'tgan asrda o'qituvchilar darslarni ma'ruza shaklida faqat o'z bilimga asoslangan holda olib borsa, ayni paytda ular interaktiv va zamonaviy metodlar va usullarga tayangan holda darslarni o'tmoqdalar.

Quyida zamonaviy talabdagagi pedagogga xos bo'lgan jihatlar keltirilgan:

### **Zamonaviy texnologiyalarni egallagan bo'lish**

O'sib kelayotgan yangi avlod Sun'iy Intellekt, ijtimoiy tarmoq kabi texnologiyalardan xabardor va ta'lim jarayonida shu kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish darslarni sifatli va o'quvchilarni o'ziga tez jalg qiladi.

Ayni paytda yurtimizdagi umumta'lim maktablarida Kundalik.com va oliv ta'lim o'quv yurtlarida Hemis platformasidan foydalanilmoqda. Bu ta'lim tizimini shaffof va barcha uchun qulay tarzda olib borlishiga yordam bermoqda. Dars jarayonlarida Kahoot, Quizizz va Mentimer kabi vositalar o'quvchilarni qizitirib, darga qatnashish potensialini oshiradi. Virtual laboratoriylar, 3D modellar va stimulsyalar orqali mavzularni o'quvchilarga chuqurroq va tushunarli yetkazish mumkin.

### **Innovatsion va ijodkorlikka ega bo'lish**

Zamonaviy o'qituvchi o'z darslarini ijodiy va ko'ngilochar tarzda tashkillashtirishi, har bir mavzuni qiziqarli va hayotiy misollar bilan tushuntira olishi zarur.

Bu holatda , albatta, pedagog turli xil o'yinlar va loyihalardan foydalanishi kerak. O'quvchilar orasida har xil muammoli mavzular haqida muhokama qilish va ularni yechim topishga undash, ularda muammolar ustida mustaqil o'ylashni talab qiluvchi topshiriqlar berish lozim.

### **Tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish**

XXI asr ta'limi tanqidiy va tahliliy fikrlash kabi ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liq. Endilikda o'quvchilar nafaqat mahalliy balki global muammolarni yechishga va ular haqida fikr yuritishga tayyor turishi zarur. Muammooga boshqa tarafdan yoki nuqta'i nazardan qarash, tolerantlik va xolisona yondashuvni shakllantiradi.

Aslida, tanqidiy fikrlashni kuchaytirish uchun qanday chora-tadbirlar qilish zarur? Kitoblar o'qish va muhokama qilish eng yaxshi usullardan biri sifatida tanilgan. Masalan, sinf uchun biror kitobni qo'shimcha uy vazifasi sifatida o'qib tugatishga berilsa va uni har bir boladan shaxsiy fikrini dalil va isbotlar bilan ifodalash so'ralsa, har bir o'quvchida shu mavzu bo'yicha turli xil g'oyalari yig'iladi. Tanqidiy fikrlash muammoga samarali yechim topishga juda katta his qo'shadi. Xilma-xil madaniyatlar va ur-odatlar haqida suhbatlar o'tkazish o'quvchilar orasida bag'rikenglik va tolerantlik kabi sifatlarni pado qiladi. Sanab o'tilgan jihatlar o'quvchining mas'uliyatli va tafakkur qiluvchi shaxs bo'lib yetishishida katta hissa qo'shadi.

## Talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish

Har bir o'quvchi turli xil harakterga ega bo'lib, o'qituvchidan shaxsiy yondashuvmi talab qiladi.

Shu sababli trening va motivatsion darslarni tashkil qilish, o'quvchining harakterini aniqlab olishga yordam beradi. Ma'lum bir yutuqqa erishgan o'quvchini rag'batlantirish ularda qadrlanish hissini uyg'otadi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ular bilan do'stona munosabatda bo'lish o'qituvchining muvafaqqiyatga erishishga yordam beradi.

## Davomli tarzda o'rganish

XXI asr bilimlar tez yangilanuvchi asr hisoblanib, insonlar kundan kunga har sohada ixtiolar va kashfiyotlar qilmoqda. Bu esa barchadan o'z ustida ishlash va yangi bilimlarni o'rganishga tayyor bo'lishni talab qiladi. Tashkillanayotgan trening va malaka kurslariga qatnashish kasbiy rivojlanishda foyda beradi. Bu yondashuv o'qituvchini zamon bilan hamnafas bo'lishiga unaydi.

Zamonaviy o'quvchilar axborotni tez va mustaqil izlab topadi, ko'p vazifalarni bir vaqtning o'zida bajaradi va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shu sababli o'qituvchilar ham yangicha fikrlovchi, moslasha oluvchi va texnologiyadan foydalana oluvchi mutaxassis bo'lishi lozim

## ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim usullari – V. A. Slastenin, I. A. Morozova
2. Raqamli ta'lim va sun'iy intellektning o'rni – G. Siemens, "Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age"
3. Zamonaviy ta'limda kompetensiya yondashuvi – N. Chomsky, "Education and Human Development"
4. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi – J. Hattie, "Visible Learning for Teachers"
5. Ta'limda innovatsion metodlar va interaktiv usullar – R. E. Mayer, "Multimedia Learning"